



OILAVIY MUNOSABATLARDA HUQUQNING AHAMIYATI

Hajiyeva Zulkumor Sherifboy qizi

Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy-gumanitar va san'at fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Zulhumorhajiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda axloq normalari huquq normalari bilan chambarchas bog'liqligi va oila kodeksining asosiy vazifalaridan yana biri fuqarolarning oila oldidagi burchlarini his qilish ruhida tarbiyalashdan iboratligi hamda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Oila kodeksi,oila,jamiyat,axloq normalari,huquq normalari,fuqarolik, aliment, mulk.

Аннотация: В данной статье акцентируется внимание на том, что нравственные нормы в семейных отношениях тесно связаны с правовыми нормами, и что одной из основных задач семейного кодекса является воспитание граждан в духе чувства своего долга по отношению к семье, особого внимания уделяется регулированию семейных отношений.

Ключевые слова: Семейный кодекс, семья, общество, нравственные нормы, правовые нормы, гражданство, алименты, имущество.

Abstract: This article focuses on the fact that moral norms in family relations are closely related to legal norms, and that one of the main tasks of the family code is to educate citizens in the spirit of feeling their duties towards the family, and special attention is paid to the regulation of family relations.

Key words: Family Code, family, society, moral norms, legal norms, citizenship, alimony, property.

Oila-jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'inidir .O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta'kidlanganidek „Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega¹“. Asosiy qonunimizda belgilangan ijtimoiy tuzum yangi jamiyat bilan oila o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan barcha prinsiplar va qoidalar, oila munosabatlari ularni tartibga soladigan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Oila kodeksining mazmuni va tabiatini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Oila huquqi -fuqarolik huquqi fanining ajralmas qismi hisoblanib, u

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Toshkent–“O'zbekiston,,-2019





asosan erkak va ayol o'rtasida nikoh tuzish tartibi va shartlari,er- hotinning mulkiy bo'limgan shaxsiy munosabatlarida kelib chiqadigan huquq va majburiyatları nikohning tugatilishi va uning haqiqiy hisoblanmaslik oqibatlari, asoslari va tartibi,qon qarindoshlik va farzandlarning shaxsiy va nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatları farzandlikka olish, vasiylik va homiylik belgilash qoidalari va shu kabi boshqa bir munosabatlarni tartibga soladi. Oila huquqning asosiy manbai hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashning 1998-yil 30-aprel qarori bilan qabul qilindi va 1998-yil 1-setabrdan kuchga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 8-bo'lim,30- bob,238-moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga O'zbekiston Qonunchiligi uchun yangilik bo'lgan nikoh shartnomasi,qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash,alimaent to'lash to'g'risida kelishish bolalarning oiladagi huquqlari va ota-onalarni moddiy ta'minlash to'g'risidagi majburiyatları hamda ota-onalarning voyaga yetmagan farzandlari oldidagi majburiyatları,ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va shunga o'xshash muhim yangi qoidalar kiritilgan.Huquqiy ma'noda oila- yuridik aloqadir. Oilaviy munosabatlardagi yuridik harakter huquqiy normalar bilan oila a'zolarining xulqiga ta'sir etadi,oilani jamiyat xohlagan asosida rivojlantirishga yordam beradi. Yuridik fakt siaftida qilingan nikoh va yaqin qarindoshlik oilaviy- huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida muhim huquqiy asos bo'ladi. Insonparvar huquqiy davlatdagi oilaga quyidagicha ta'rif berish mumkin:,,Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib yuridik ma'noda nikoh,qarindoshlik,farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarda doimiy tarbiyaga olishga kelib chiqqan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar dorasidan iborat”².Oilaviy munosabatlar aksariyat hollarda axloqiy normalar bilan tartibga solinadi.Oilaviy-huquqiy munosabatlar nikoh va oila doirasidagina aniq ijtimoiy munosabatlarni nikoh va oila qonunchilik nuqtai nazardan tadbiq etishdir. Oilaviy- huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatning maqsadlari bilan belgilanadi.Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan,oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat,ishonch va hurmat ,hamjihatlik,bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.Oila bu jamiyatning bir bo'lagi,kichik bir vatan, insoniy muhabbat ifodasi, insonni dunyoga keltiradigan makon,ilk tarbiya o'chog'i.Barcha fuqarolardan o'z oilasini mustahkamlash ,uning har bir a'zosini vatanparvar davlatimiz uchun sidqidildan xizmat etuvchi sodiq farzand qilib tarbiyalashni talab qiladi.Oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan asosiy maqsad oilaning mustahkam

² <https://elib.buxdu.uz>





bo'lishida munosabatlarda o'zaro muhabbat,ishonch,hurmat va hamjihatlik zamirida barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.<https://elib.buxdu.uz>
- 2.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi-Toshkent „Adolat” .
- 3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Toshkent-“O'zbekiston,-2019

